

SURXON GILAMCHILIK SAN'ATI NAMUNALARING ZAMONAVIY TURLARI

To'raxonova Zarifa

"Termiz" davlat muzey-q'o'riqxonasi Etnografiya bo'limi bosh mutaxassisi

Аннотация: Ushbu maqolada gilamchilik tarixi uning shakllanishi va yurtimiz tarixidagi o'rni yoritib boriladi. Gilam to'qish va uni toqishgacha bo'lган jarayonlari etnografik ahamiyati tahlil qilingan. Bir so'z bilan aytganda Gilamchilik san'ati uning ahamiyati va zamonaviy turlari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Gilam, gilamchilik sanoati, etnografiya, surxon san'ati.

O'zbek gilam san'ati uning tarixi to'g'risida umumiyoq tassavurga ega bo'masdan turib, gilamchilik sohasini yoritib bo'lmaydi. Xususan gilam va gilamchilik tarixi bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, milliy hunarmandchilik san'atining qadimiyoq va noyob namunasi sifatida shakllanib kelgan. Turli elat va millatlar qabilalari gilam to'qish bilan shug'ullanganlar. Bu gilamlarda qabilalarning o'ziga xos ajoyib naqshlari ishlatilgan, bu esa qabilalarning o'z ramziy belgilardan foydalangan holda bezatilgan va keyinchalik xo'jalik zaruriyatini uchun ishlatilgan. Surxon vohasi uning gilamchilik san'ati o'zining qadimiyoq va takrorlanmas o'ziga xos madaniyati va etnografik o'lka ekanligi bilan ajralib turadi. Bularni birgina to'qimachilik sanoati, uy jihozlar namat, kigiz va gilam mahsulotlari va ularning tarixi misolida ko'rishimiz mumkin. Gilamning dastlabki namunasi tayyorlash uchun hayvon junlaridan foydalanilgan. Hayvon junlari qadimdan gilamchilik sanoati uchun asosiy homoshyo manbai bo'lgan. Gilamlarni to'qish uchun xonakilashtirilgan hayvonlardan; qo'y, echki, tuya junlari olib yuvilgan, so'ng maxsus moslama bo'lgan jun taroqlarda tozalangan. Tayyor bo'lgan mahsulotlaridan pishiq ip tayyorlab olingan. Turli xil o'simliklardan olib tayyorlangan tabiiy ranglar bilan bo'yagan, keyin xonardon sohiblari tomonidan o'z texnikasi asosida to'qilgan. Gilam to'qish uchun qadimdan maxsus qurilmalardan foydalanishgan. Gilam to'quvchilar tomonidan tayyorlangan gilamlarni quyidagilarga ajratadi: gilamlar, olacha gilam, kigiz, namat, xurjunlar va boshqalar. Oyoq ostiga to'shaladigan gilamlar har doim katta o'lchamlarda tayyorlangan, uzunligi 2,0-2,5 m, eniga 1,2-1,4 m. bo'lgan. Bular hozirgi kunda tog'li hududlarda mavjud bo'lib, adorga, qizuv, qilich, suruv arqon deb nomlangan. Surxon vohasida tayyorlangan gilamalar tabiiy ishlov berilgani sababli gilamlar o'z rangini va sifatini uzoq vaqt davomida yo'qotmagan. Etnografik manbalarga ko'ra, eng qadimgi gilamlar namunalari miloddan avvalgi 6-5 asrlarga oid bo'lib, tog'li Oltoy hududlaridan topilgan. Bu hudud doimiy muzlikdan iborat bo'lgan tabiatni sababli gilam uzoq muddatga juda yaxshi saqlangan. Tarixchilarning taxmin qilishicha, bu gilam Ahamoniylar davrida forslar yoki o'rta osiyo hududida istiqomat qilgan ko'chmanchi qabila (sak, massaget) lar orasida tayyorlangan. Naqshlarining tabiatni va bajarilish uslubi bo'yicha barcha gilamlarni 3 ta asosiy guruhgaga bo'lish mumkin: qoziq, paxtasiz va kigiz. Qadimgi Fors gegemonligi Turkiya, Xitoy hatto Yevropa tomonidan siqila boshlanadi. Ammo eng yaxshi gilamlar, masalan, ipak iplaridan tayyorlangan buyumlar hali ham juda qimmat. Zamonaviy texnologiyalar sintetik gilam sifatini klassik jun matolari bilan tenglashtirishga imkon berdi. Sintetik gilamlardan foydalanish katta foyda keltiradi: ularga g'amxo'rlik qilish osonroq. Ishlab chiqarish texnologiyasiga va ipni poydevorga mahkamlash usuliga qarab, gilamning quyidagi turlarga ajratiladi: to'quv, to'qilgan, kigiz, tafting va igna bilan bog'lab qo'yilgan. Ignalanma va to'qish ishlab chiqarish tez, avtomatlashtirilgan va arzon. To'qilgan gilamlarni tayyorlash jarayoni ancha sekin va murakkabroq. An'anaviy hunarmandchilikka taqlid qilib, to'qilgan gilam to'qilgan va ignali gilamlarga qaraganda ancha qimmat. Ular ikkita kesishgan iplar tizimididan iborat: bo'ylama va

ko'ndalang. To'qilish usuliga ko'ra patli va patsiz gilam turlari farqlanadi. Qo'lda gilam to'qish O'rta Osiyoda, ayniqsa Turkmanistonda keng rivojlangan. Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish, to'quvchidan qunt, did va mahorat talab qilinadi. Patli gilamlarni to'qish ayniqsa murakkab. Qo'lda to'qilgan gilam texnologiyasi, naqsh mujassamoti asos ipiga rangli iplardan tugib bandlar hosil qilib yaratiladi, tugun uchi matoning yuza tomoniga chiqarib tekis qirqiladi, har bir qatordan so'ng arqoq ipi o'tkazib maxsus temir taroqqa uring avvalgisiga mahkamlanadi. 1 kv.m patli gilam to'qish uchun 20-25 kun vaqt ketgan. Patli gilamlar kalta patli (3-7 mm) va uzun patli (8-17 mm) bo'ladi. Gilam to'quvchi 1 kv.m yuzada 600-1030 tacha bog' bog'lashi lozim bo'ladi. Gilamlar hajmi jihatdan 3 xil bo'ladi: kichik 3 kv.m gacha, o'rtacha 3 kv.m dan 6 kv.m gacha va katta 6 kv.m dan katta. Tayyor gilam maxsus kimyoviy moddalar yordamida yuviladi. Gilamlar turli hajmda tayyorlanadi. O'rta Osiyo gilamlari uchun xos bo'lgan, naqshining aniqligi, go'zal bo'lishi va ranglarining uyg'unligi ularning badiiy qimmatini oshirgan. Hozirda gilam Farg'ona vodiyisida, Qashqadaryo, Surxandaryo, Sirdaryo viloyatlari, Qoraqalpog'stonda rivojlangan. Shuningdek, Samarqand, Urgut, Qo'qon va Xorazm ham gilam markazlaridir. An'anaviy gilam hunarmandchilik turi (uyda to'qiladigan) sifatida rivojlanmoqda. Samarqand va Buxoroning ipak gilamlari ham keng tarqalmoqda. An'anaviy gilam rivojiga "Us to" birlashmasi va "Hunarmand" "assotsiatsiyasi munosib hissa qo'shmaqda.

Adabiyotlar ruyxati:

1. Т.А.Очилов, М.Кулметов, С.А.Хамраева ва б. "Тўқимачилик материалшунослиги" Тошкент: ,Адабиётлар учқунлари, 2018.-310б.
2. Нечаева О.А. Этнографическая лексика как источник обогащения русского литературного языка II Развитие литературных языков народов Сибири в Советскую эпоху. –Улан-Удэ, 1965.
3. Omonturdiyev A., Rahmonov B. Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug'ati. Toshkent, 2019. 7. Qosimova R. O'zbek to'y va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. –Toshkent, 2018.
4. Amonturdiyev N.R. Surxondaryo etnografizmlarining lyeksikografik xususiyatlari. Fil. fan. bo'yicha fals.dok. (PhD) dis. –Termiz, 2021.